



TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 29-30-sentabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SIRDARYO VILOYATI HOKIMLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI,
TURKIYA RESPUBLIKASI BALIKESIR UNIVERSITETI,
TURKIYA RESPUBLIKASI FIRAT UNIVERSITETI,
YANGLING KASB-HUNAR VA TEXNIKA KOLLEJI**

**“TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI:
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI, YECHIMLARI,
TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 29-30-sentabr

**“BOOKMATY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 811(075)
KBK: 81.1
T 42

Tilshunoslikning amaliy masalalari: zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari, yechimlari, taraqqiyoti va istiqbollari [Matn]: to‘plam. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 657 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga asosan **Guliston davlat universitetida 2025-yil 29-30-sentabr kunlari o‘tkazilgan “TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI, TARAQQIYOTI VA ISTIQBOLLARI”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Anjuman zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb ilmiy mavzulari va amaliy masalalariga doir uslubiy ishlanmalarni aks ettirishga qaratilgan.

Mas’ul muharrirlar:

f.f.f.d. (PhD), dotsent A.Axrorov, f.f.d., professor F.Sharipov, f.f.d., professor I.Ermatov, f.f.n., dotsent J.Abdullayev, f.f.n., dotsent I.Pardayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent. M.Latipov, Prof. Dr. Banovsha Mammadova Guloghlani, Prof. Dr. Ertan Örgen, Prof. Dr. Suheyli Demirkol Orak.

Tahrir hay’ati:

A.Axrorov, A.Mamatqulov, Sh.Ro‘ziqulov, Z.To‘ychiyeva

To‘plamga keltirilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar hamda fikr-mulohazalar, takliflarning to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar

ISBN 978-9910-06-724-2

© Guliston davlat universiteti, 2025.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

qolishi yoki o'qituvchining rolini kamaytirib yuborishi mumkinligi ham nazardan chetda qolmasligi lozim.

Adabiyotlar

1. Abiturtest. Muammoli ta'limning nazariy asoslari haqida ma'lumot. – URL: <https://abiturtest.uz> (murojaat qilingan sana: 17.09.2025).
2. Ally, M. Foundations of educational theory for online learning // In: Anderson T., Elloumi F. (Eds.). Theory and practice of online learning. – Athabasca University, 2008. – URL: http://cde.athabascau.ca/online_book/pdf/TPOL_book.pdf (murojaat qilingan sana: 28.05.2019).
3. Shukurov V. Iqtisodiy sohalarining rivojlanishida internet texnologiyalarining o'rni // The Journal of Economics, Finance and Innovation. – 2023. – URL: <https://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/view/98> (murojaat qilingan sana: 17.09.2025).
4. Shukurov V. Iqtisodiyot fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Engineering problems and innovations. – 2023. – URL: <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/189> (murojaat qilingan sana: 17.09.2025).
5. Shukurov V. Ta'lim jarayoniga interfaol elektron manbalarni joriy qilishning ahamiyati // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – URL: <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/605> (murojaat qilingan sana: 17.09.2025).
6. Shukurov V., Khaydarov J., Karimov A. Factors for the formation of multimedia competencies in improving the methodology of teaching specialist subjects
7. <https://daryo.uz/2021/07/13/shavkat-mirziyoyev-raqamli-texnologiyalarni-joriy-etish-choratadbirlariga-oid-taqdimot-bilan-tanishdi> (murojaat qilingan sana: 17.09.2025).

QIT'A JANRI JADID ADABIYOTIDA

*Jo'raqulov Sardor Mashrab o'g'li,
Guliston davlat universiteti,
O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrasida o'qituvchisi
email: sardorjoraqulov257@gmail.com*

Annotatsiya. Jadid adabiyotida qit'a janri har tomonlama taraqqiy etdi va takomillashdi. Mumtoz she'riyat an'analarini davom ettirish bilan birga ularga yangiliklar kiritildi, o'rni bilan ayrimlaridan voz kechilib, barmoq va erkin she'r tizimlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Jadid adabiyoti, qit'a janri, inson ma'naviyati, mavzular ko'lam, didaktik mazmun, shakliy ifoda, ijtimoiy hayot ifodasi, axloq masalalari.

Annunciation. In Jadid literature, the continental genre has developed and improved in all aspects. While continuing the traditions of classical poetry,

innovations have been introduced into them, some of which have been abandoned, and the use of finger and free verse systems has been introduced.

Keywords: Modern literature, kit'e genre, human spirituality, scope of topics, didactic content, formal expression, expression of social life, moral issues.

Jadid she'riyati o'ziga xos she'riyat bo'lib, unda adabiy tur va janrlarda o'zgarishlar va yangilanishlar kuzatilganligi barchaga ma'lum. Ayniqsa, mumtoz she'riyat an'alarini davom ettirish bilan birga ularga yangiliklar kiritish, o'rni bilan ayrimlaridan voz kechish, aruz she'r tizimi o'rniga barmoq va erkin she'r tizimlaridan foydalanish kabi holatlar ushbu she'riyatga xos o'zgarishlardir.

“Vazniy yangilanish XIX asr oxirlaridan boshlanib, mumtoz she'r o'lchovlari va she'r shakllaridan jonli tilga eng yaqinlarini saylab ishlatishda namoyon bo'ldi. XX asrning 10-yillariga kelib yaratila boshlagan “milliy she'r”larda mumtoz poetika qoidalaridan chekingan holda an'anaviy o'lchov va shakllarga muayyan o'zgartirishlar kiritila boshlandi. Bu o'zgartirishlarning asosiy omillari realistik tamoyillarning kuchayishi, she'riyatning keng ommaga qaratilishi, she'r tilining jonli tilga yaqinlashishidir. Darhaqiqat, aksar jadid shoirlarining aruziy she'rlari tili ham sodda, ravon, barchaga tushunarli tarzda shakllantirilgan. Shuningdek, yuqorida ham aytib o'tilganidek, bu davr she'riyatida ayrim mumtoz janrlardan voz kechilganligini ham kuzatish mumkin. “Jadid shoirlari ijodida mumtoz she'riyatda qo'llanilgan o'n yetti janrdan o'n birini kuzatamiz. Shunday ekan, bu holning o'ziyoq jadid shoirlari ijodida mumtoz an'alar ishtirok etish bilan birga ular jadid adabiyoti vakillarini yangi barmoq tizimidagi janrlarda ijod qilishga muayyan tayyorgarlik vazifasini o'tagan. Jadid she'riyati ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganildi. Bu davr adabiyotini o'rgangan aksar olimlar bu davr ko'plab adabiy tur va janrlar uchun “islohotlar” davri bo'lganligini, mumtoz adabiy janrlardan va qisman aruzdan voz kechish evaziga jahon adabiyotida mavjud ko'plab janrlar o'zlashtirilganligini ta'kidlaydilar. O'zgarishlar she'riyatdagi g'oyaviylik, mavzular ko'lami ham obrazlilikka ham taalluqli ekanligini ushbu davrga tavsif berish orqali yoxud biror ijodkorni o'rganish jarayonida ta'kidlab o'tganlar.

“XX asrning boshlari jadid shoirlari ijodida aruzdan barmoqqa o'tish jarayoni tezlashdi. Hatto aruzda yozilgan she'rlarni barmoq shaklida ifodalash, to'liq misralarni bo'lib tashlab yozish holatlari ko'zga tashlanadi. Bu holat bir jihatdan barmoqqa o'tish jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ritmik-intonatsion ohangni kuchaytirish, poetik mazmunni yorqinroq ifodalash maqsadida qo'llanilgan”[2:22]. Ma'lumki, jadidlar millatni uyg'otishni, ularni ilm-ma'rifatga da'vat qilishni bosh maqsad qilib belgilaganlar. Mana shu konsepsiya she'riyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan va jadid shoirlar aruziy she'rlar orqali oddiy insonlar ongiga kirib borish mushkul ekanligini faxmlaganlar. Shu ma'noda ham aruzdan barmoqqa o'tish yoki she'rlarni soddalashtirish jarayonlari tezlashtirilgan.

Jadidlar ijodiyotida, xususan, lirikasida qit'a janri tadqiqi bo'yicha adabiyotshunos Nodira Afoqovanning xizmatlari alohida bo'lib, bu mavzu olimaning “O'zbek jadid adabiyotida she'riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari” nomli doktorlik

dissertatsiyasida [4:281] qisman hamda alohida shaklda “XX asr o‘zbek adabiyotida ruboiy va qit’a” nomli risolasi [3:28] da ham o‘rganilgan.

Professor Muqaddas Tojiboyevaning “Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an‘analari” nomli doktorlik dissertatsiyasi [6:269] da ham ushbu janr namunalari tadqiqiga qisman to‘xtalib o‘tilgan.

Abdulla Avloniy to‘rtta she‘rini qit‘alar rukni ostida jamlagan. Ulardan birinchisida asr boshidagi usmonli turk madaniyatining tilga ham ta‘sir ko‘rsatganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi: she‘rning vazni hazaji musammani mahzuf. Qofiyalanish tartibi: a-b, d-b.

Bing ayshimni qiluram hadya birgina g‘amga –
Ki, aysh-u xob-u xayol-u g‘amim banga yo‘ldosh,
Agarchi baxti qaroyam, ki hech g‘am chekmam,
Charoki, baxtim erur holi millata o‘xshosh [1:90].

Mazmuni: men o‘z xalovatimni birgina g‘amga hadya qilaman. Aysh, halovat, g‘am manga yo‘ldosh. Agar baxti qaro bo‘lsam ham hech ham g‘am chekmayman, chunki baxtim millat holiga o‘xshash. Ya‘ni men huzur-halovatimni millatim baxti uchun almashgan bo‘lar edim deyilmoqda. She‘rda istiora (aysh), ta‘dil (aysh, xob, xayol, g‘am), tashbeh (baxti qaro), ibora (g‘am chekmam) kabilar mazmunni yuzaga chiqarish uchun qo‘llanilgan.

Quyidagi qit‘ada yaxshi va yomon do‘st orttirish xususida so‘z boradi:
Yaxshi do‘st aybi yor-do‘stini,
Ko‘zgudek ro‘baro‘sida so‘zlar.
Yamon o‘rtog‘ tarog‘cha ming til ila,
Orqadan burmalab tarab so‘zlar [1:90].

Ya‘ni yaxshi do‘st ro‘paradagi ko‘zgu kabi barcha so‘zlarini ochiq gapiradi, yomon do‘st esa tarog‘dek orqangdan har bir so‘zi orqali tiladi. Qofiyalanish tartibi ham a-b-d-b. Lekin shoir tajnis qofiyadan ham foydalangan, ya‘ni so‘zlar so‘zi ikki xil ma‘noda: ko‘p so‘zlar va so‘zlamoq ma‘nosida. She‘rda tazod (yaxshi – yomon), o‘xshatish (ko‘zgudek), tashbeh (yaxshi do‘st, yamon o‘rtog‘), tashxis (tarog‘cha ming til ila) kabi san‘atlardan foydalanilgan.

Umuman, Abdulla Avloniy qit‘alari badiiyati ancha yuqori she‘rlar sanaladi. Ularda ham boshqa she‘rlarida bo‘lgani kabi ilm-ma‘rifatga targ‘ib, millat kelajagi uchun qayg‘urish va o‘git mazmuni yetakchilik qiladi.

Shoir Botu ijodida ham parcha sarlavhasi ostida oltita qit‘asi mavjudligi uning yilda nashr etilgan “Tanlangan asarlar”i tarkibiga kiritilgan. Shuningdek, o‘git sarlavhasi ostida ham bir necha she‘rlari mavjud.

Botu qalamiga mansub qit‘alar asosan barmoq vaznida yaratilgan. Mavzular ko‘lami ham turlicha. Xususan, ishq-muhabbat, inson erki, ijtimoiy hayot muammolari, tabiat manzaralari tavsifi kabi mavzularni uchratish mumkin. Ulardan biri barmoqdagi 10 lik turkumga mnsub bo‘lib, 5+5 hajmdagi turoqlanish tartibiga ega.

5 + 5

Ko‘nglimda bo‘lgan/ sevgi tamug‘i //10

5 + 5

Dardli ruhimning/ sevgan ozug'i. //10

5 + 5

Bu tamug'dagi/ olovlar so'nsa, //10

5 + 5

Tirikligimning/ bitar yorug'i [5:28]. //10

Jadid shoirlaridan yana biri bo'lgan Elbek ijodida ham qit'a (parcha)lar o'ndan ortiq. Elbek qit'alari aruz vaznida, ham barmoq vaznida ham, erkin vaznda ham yozilgan. Ya'ni shoir ushbu janr imkoniyatlarini har uchala vaznda ham sinab ko'rgan va bunda o'ziga xos natijalarga erishgan. Shoir Elbekning yana bir individual yutug'i ikkita qit'asida alliteratsiya usulidan foydalangan va ushbu janr namunasini yangicha shakl va mazmunda ifodalay bilgan. Ularning har ikkalasi ham peyzaj lirika namunasi bo'lib, biri ko'klam, ikkinchisi qish haqida. Ko'klam mavzusidagi qit'ada shoir "k" harfini qaytariluvchi harf sifatida tanlagan bo'lsa, qish haqidagi she'rga "q" harfini tanlagan.

Ko'klam haqidagi qit'aning 1 va 2-misralari 3+3+4=10 turoqlanish tartibiga ega bo'lsa, 3 va 4-misralari 5+5=10 turoqlanish tartibiga egaligi ma'lum bo'ladi. Bu bir harfdan boshlanuvchi so'zlarni joylashtirish qiyinchiligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ko'klamda/ ko'karsa/ ko'k ko'katlar, //10

Ko'klarga/ ko'milsa/katta-kattalar, //10

Ko'm-ko'k ko'karib/ ko'rinsa ko'llar, //10

Ko'ngilni ko'tarsa/ ko'rkli gullar... [7:30] //10

Xullas, jadid shoirlari ijodida qit'a janri namunalari aksar holatda "parcha" nomi ostida shakllantirilgan. Jadid shoirlari qit'ani milliy adabiyotimizda mavjud bo'lgan uch vaznda ham yoza bilganlar. Qit'alarda yangicha usullar, ko'plab tasvir va ifoda vositalaridan foydalani, janrning betakror namunalari yaratish bilan birga uni xalqqa, ommaga yaqinlashtirish, tushunarli qilish uchun soddalashtirishga ham intilganlar. Umuman, jadid shoirlar qit'a janrini atroflicha takomillashtirgan.

Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma. – T.: Zabardast Mediya, 2022. – B. 90.

2. Yuldashev N. T. Cho'lpon she'riyati poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Andijon, 2024. – B. 22.

3. Афоқова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Т.: Фан, 2005. – 28 б.

4. Афоқова Н.М. Ўзбек жаҳид адабиётида шеърӣй шакллар тараққӣи тамоӣйллари. Филол. фан. док...дисс. – Тошкент, 2006. – 281 б.

5. Боту. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 28.

6. Тожибоева М.А. Жаҳид адиблари ижодида мумтоз адабиёт аңаналари. Филол. фан. д-ри...(DSc) дисс. – Тошкент, 2018. – 269 б.

7. Элбек. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 30.

8. Элбек. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 37.

Ra'no Abduvaliyeva

INFORMATIKA VA TEXNOLOGIYA ASOSLARI FANI TERMINLARI
XUSUSIDA.....618

Sunnatullo Shukurulloyev

PSIXOLOGIK TERMINLAR O'ZBEK MILLIY TERMINOLOGIYASINING
E'TIBOR MARKAZIDA.....622

Birsel ORUÇ ASLAN

ÖZBEK VE TÜRK ATASÖZLERİNDE ZITLIKLAR.....624

O'g'iloy Utegenova

TASVIRIY IFODALAR IKKILAMCHI NOMINATIV BIRLIK SIFATIDA.....629

Gulnoza Abdurahimova

O'ZBEK TILINI O'QITISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR.....632

Sardor Jo'raqulov

QIT'A JANRI JADID ADABIYOTIDA.....638